Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN.....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Urkinbaev T. A.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLON BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDI INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек ўғли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахитбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIJ TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadriddin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	



МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	
TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODEL	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	



MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI

Qodirov Farrux Ergash o'g'li

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi kafedrası mudiri

i.f.f.d PhD, dotsent

E-mail: farruxbek1993@gmail.com

ORCID: 0000-0002-4574-7728

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintqa iqtisodiy rivojlanish dinamikasini baholash va prognozlash jarayonida integratsiyalashgan subyektlar modeli asosida davlat, xususiy sektor va investorlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarining roli tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida mintaqaviy rivojlanish jarayonlariga ta'sir etuvchi asosiy iqtisodiy omillar aniqlanib, ularning o'zaro uyg'unlashuvi orqali hududiy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, integratsiyalashgan subyektlar modeli asosida investitsiya faolligini oshirish, bandlik darajasini yaxshilash hamda mintaqaning raqobatbardoshligini kuchaytirish yo'llari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: mintqa iqtisodiy rivojlanishi, integratsiyalashgan subyektlar modeli, davlat-xususiy hamkorlik, investitsiya faolligi, iqtisodiy dinamika, hududiy rivojlanish.

Abstract. This article analyzes the role of interaction mechanisms between the state, the private sector, and investors in assessing and forecasting the dynamics of regional economic development based on the integrated subjects model. The study identifies key economic factors influencing regional development processes and scientifically substantiates the possibilities of ensuring the sustainability of the regional economy through their coordinated interaction. In addition, the paper highlights approaches to increasing investment activity, improving employment levels, and enhancing regional competitiveness using the integrated subjects model.

Key words: regional economic development, integrated subjects model, public-private partnership, investment activity, economic dynamics, territorial development.

Аннотация. В статье анализируется роль механизмов взаимодействия государства, частного сектора и инвесторов в оценке и прогнозировании динамики регионального экономического развития на основе модели интегрированных субъектов. В ходе исследования выявлены основные экономические факторы, влияющие на процессы регионального развития, и научно обоснованы возможности обеспечения устойчивости территориальной экономики за счёт их согласованного взаимодействия. Также раскрыты направления повышения инвестиционной активности, улучшения уровня занятости и усиления конкурентоспособности региона с использованием интегрированной модели субъектов.

Ключевые слова: региональное экономическое развитие, модель интегрированных субъектов, государственно-частное партнёрство, инвестиционная активность, экономическая динамика, территориальное развитие.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib bormoqda. Mintaqa iqtisodiy rivojlanishi nafaqat alohida subyektlarning faolligiga, balki davlat, xususiy sektor va investorlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik darajasiga ham bevosita bog'liq. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy rivojlanishni integratsiyalashgan subyektlar modeli asosida tahlil qilish mintaqaviy iqtisodiyotning ichki imkoniyatlarini to'liqroq aniqlash hamda samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Mamlakatimizda hududlarni kompleks rivojlantirishga qaratilgan islohotlar natijasida sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohalarining o'zaro uyg'unlashuvi kuchayib bormoqda. Biroq mintaqalararo iqtisodiy dinamikaning



barqarorligini ta'minlashda mavjud mexanizmlarning yetarli darajada integratsiyalashmaganligi sababli iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligi pasayib bormoqda. Shu boisdan, mazkur tadqiqotda mintaqa iqtisodiy rivojlanish dinamikasini integratsiyalashgan subyektlar modeli asosida baholash va takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy rivojlanish masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda iqtisodiy o'sish va hududlararo tafovutlarni kamaytirishning asosiy omillari sifatida investitsiya faolligi hamda davlat-xususiy hamkorlik mexanizmlarining o'rne alohida ta'kidlanadi. Jumladan, Barro va Sala-i-Martin mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy konvergensiya jarayonlarini tahlil qilib, institutsional muhit va investitsiya oqimlari barqaror rivojlanishning asosiy omillari ekanligini asoslab bergan [1].

Rodriguez-Pose tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda hududiy rivojlanishda markazlashgan siyosat emas, balki mahalliy darajadagi integratsiyalashgan boshqaruv tizimlari muhim rol o'ynashi ko'rsatib o'tilgan [2]. Ushbu yondashuv integratsiyalashgan subyektlar modelining nazariy asoslarini mustahkamlaydi.

O'zbekiston olimlaridan Tursunov mintaqalar iqtisodiy rivojlanishida davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish orqali hududiy barqarorlikni ta'minlash masalalarini tahlil qilgan hamda bunda integratsiyalashgan mexanizmlarning zarurligini ta'kidlagan [3].

Shuningdek, Qodirov va Abdullayevlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mintaqaviy iqtisodiyotda klasterlash va investitsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish hududiy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili sifatida ko'rsatib berilgan [4].

Xorijiy tajribaga murojaat qilgan holda, OECD hisobotlarida hududlararo rivojlanishni ta'minlashda ko'p subyektki boshqaruv (multi-stakeholder governance) modelining afzalliklari asoslab berilgan bo'lib, ushbu yondashuv integratsiyalashgan subyektlar modelining amaliy jihatdan samarali ekanligini tasdiqlaydi [5].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi:

- Tizimli tahlil usuli – mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi subyektlar (davlat, xususiy sektor, investorlar) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashda;
- Taqqoslash va guruhlash usullari – hududlar iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini solishtirish hamda integratsiyalashgan subyektlar faoliyatini baholashda;
- Statistik va dinamik tahlil – mintaqaning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari dinamikasini aniqlashda;
- Ekonometrik modellash – integratsiyalashgan subyektlar modeli asosida iqtisodiy rivojlanish omillari o'rtasidagi bog'liqlikni baholashda;
- Prognozlash usullari – hududlar iqtisodiy rivojlanishining istiqbolli ssenariylarini ishlab chiqishda.

Ushbu metodlar majmuasi mintaqa iqtisodiy rivojlanish dinamikasini chuqur tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda iqtisodiyotning globallashuvi va raqamli transformatsiya sharoitida mintaqaviy va tarmoqlararo iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, integratsiyalashgan subyektlar modeli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga samarali ta'sir ko'rsatuvchi vosita sifatida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu model turli iqtisodiy subyektlarning (davlat, biznes, fuqarolik jamiyati institutlari, ilmiy muassasalar va ta'lim tashkilotlari) o'zaro hamkorligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanish strategiyalarini shakllantirish va amalga oshirishda muhim o'rin tutadi.

Integratsiyalashgan subyektlar modeli mintaqa iqtisodiy rivojlanish jarayonida turli iqtisodiy ishtirokchilar — davlat, xususiy sektor, mahalliy aholi, ilmiy muassasalar va notijorat tashkilotlarning o'zaro hamkorligini nazarda tutadi. Ushbu modelning mohiyati shundan iboratki, iqtisodiy subyektlar alohida emas, balki yagona tizim doirasida faoliyat yuritadi. Model mintaqaviy iqtisodiyotda mavjud resurslarni samarali taqsimlash, sinergetik samaralarni shakllantirish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash imkonini beradi. Chunki har bir subyektning roli aniq belgilangan taqdirda, umumiy natijaning ijobiy bo'lish ehtimoli oshadi.

Muhim jihati shundaki, hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy subyektlar o'rtasida izolyatsiyalashuv emas, balki integratsiya jarayonlari kuchayib bormoqda. Bu esa mintaqaning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Integratsiyalashgan model orqali ishlab chiqarish tarmoqlari, xizmat ko'rsatish sohasi va ilmiy-innovatsion faoliyat uyg'unlashtiriladi. Natijada yangi texnologiyalar tezroq joriy etilib, iqtisodiy samaradorlik oshadi. Subyektlar o'rtasidagi uzviy hamkorlik mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Masalan, davlat investitsiya siyosatini belgilaydi, biznes uni amaliyotga tatbiq etadi, aholi esa mehnat resurslari va iste'molchilar sifatida ishtirok etadi.

Modelning yana bir muhim jihati — mintaqaviy muammolarni kompleks hal etish imkoniyatidir. Agar subyektlar alohida-alohida emas, balki birgalikda harakat qilsa, kambag'allik, ishsizlik va infratuzilma taqchilligi



kabi muammolar samaraliroq hal etiladi. Dolzarblikning yana bir sababi ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liqdir. Davlat ekologik siyosatni yuritadi, biznes ekologik texnologiyalarni joriy etadi, aholi esa ekologik ong va iste'mol madaniyatini rivojlantiradi.

Integratsiyalashgan subyektlar modeli mintaqaviy raqobatni emas, balki hamkorlikni rivojlantiradi. Bu esa mintaqalararo hamkorlikni kuchaytirib, mamlakat miqyosida iqtisodiy barqarorlikni oshiradi. Modelning asosiy dolzarbligi shundaki, u iqtisodiyotni nafaqat makro darajada, balki mikro va mezo darajalarda ham tahlil qilish imkonini beradi. Shu orqali turli darajadagi qarorlar o'zaro uyg'unlashadi. Ushbu modelni qo'llash orqali hududlarda yangi klasterlar va innovatsion aglomeratsiyalar shakllanadi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga olib keladi.

Integratsiyalashgan yondashuv mintaqaviy siyosatda ham dolzarb bo'lib, u mahalliy boshqaruv, biznes va fuqarolar o'rtasida ishonch va hamkorlik muhitini mustahkamlaydi. Asosiy maqsadlardan biri — mintaqaviy iqtisodiyotda uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashdir. Bunda iqtisodiy subyektlar o'z manfaatlarini uyg'unlashtirgan holda hududning umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Modelning yana bir muhim maqsadi mintaqaviy nomutanosibliklarni kamaytirishdan iborat. Integratsiya orqali resurslar samarali taqsimlanib, iqtisodiy tenglikka erishish imkoniyati ortadi.

Umuman olganda, mintaq iqtisodiy rivojlanish dinamikasini integratsiyalashgan subyektlar modeli asosida tahlil qilish mintaqaviy siyosatda zamonaviy va dolzarb yondashuv hisoblanadi. Uning asosiy mohiyati hamkorlik, dolzarbligi barqarorlik, maqsadi esa raqobatbardoshlikni oshirish va uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlashdan iborat.

Integratsiyalashgan subyektlar modelining nazariy asoslari

Integratsiyalashgan subyektlar modeli nazariy jihatdan bir necha fanlar — institutsional iqtisodiyot, tizimli yondashuv, mintaqaviy iqtisodiyot va strategik menejment — kesishgan nuqtasida shakllangan. Ushbu model quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

- o'zaro bog'liqlik va hamkorlik: iqtisodiy subyektlarning o'zaro manfaatlar asosida faoliyat yuritishi;
- kooperatsiya va komplementarlik: subyektlarning bir-birini to'ldiruvchi resurs va kompetensiyalarga egaligi;

- strategik muvofiqlik: umumiy rivojlanish maqsadlariga xizmat qiluvchi muvofiqlashtirilgan harakatlar;
- innovatsion uyg'unlik: fan, texnika va innovatsiyalar asosida integratsiyani chuqurlashtirish.

Model tarkibi va ishtirokchilari

Integratsiyalashgan subyektlar modeli quyidagi asosiy ishtirokchilarni o'z ichiga oladi:

- Davlat organlari — siyosiy-iqtisodiy muhitni shakllantirish, qonunchilik va infratuzilmani rivojlantirish;
- Biznes subyektlari — ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, investitsiya va innovatsion faoliyatni amalga oshirish;

- Ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta'lim tizimi — yangi bilim va texnologiyalarni ishlab chiqish va uzatish;

- Fuqarolik jamiyati institutlari — ijtimoiy nazorat, taklifgachilik va manzilli ishtirok orqali boshqaruvda qatnashish.

Mazkur subyektlar o'zaro hamkorlik asosida ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va innovatsion loyihalarni birgalikda amalga oshiradi.

Modelning ishlash mexanizmi

Modelning ishlash mexanizmi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- mintaqaviy resurslar va ehtiyojlarni modellash;
- subyektlar o'rtasida axborot almashinuvi va hamkorlik yo'nalishlarini aniqlash;
- strategik maqsadlarni belgilash va resurslarni muvofiqlashtirish;
- hamkorlikda loyiha va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;
- monitoring, tahlil va qayta takomillashtirish jarayonlari.

Ushbu mexanizm orqali integratsiyalashgan subyektlar o'zaro sinergiya hosil qiladi va mintaqaviy rivojlanish samaradorligini oshiradi.

Modelni amaliyotga tatbiq etish tajribalari

Jahon amaliyotida integratsiyalashgan subyektlar modeli ko'plab mamlakatlarda muvaffaqiyatli qo'llanilgan. Jumladan, Germaniyada sanoat—oliy ta'lim—innovatsiya uchligi asosida texnoparklar va ilmiy markazlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Janubiy Koreyada davlat, biznes va ta'lim muassasalari o'rtasidagi yaqin hamkorlik texnologik taraqqiyotga zamin yaratmoqda. Finlyandiyada esa innovatsion tizimda barcha subyektlar yagona tarmoqda integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ushbu yo'nalishdagi yondashuvlar jadal rivojlanmoqda. Xususan, ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi, tarmoqlararo kooperatsiyalarni kengaytirish hamda xususiy sektor ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda.



1-jadval. Modelning ustunliklari va cheklovlari

Ustunliklar	Cheklovlar
Resurslardan samarali foydalanish	Subyektlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvi
Innovatsion faoliyatni rag'batlantirish	Axborot yetishmovchiligi yoki yopiq tizimlar
Hududlararo tafovutlarni kamaytirish	Institutsional nomuvofiqlik va qonunchilikdagi bo'shliqlar
Strategik hamkorlikni chuqurlashtirish	Malakali kadrlar taqchilligi
Subyektlararo ishonchni oshirish	—

Integratsiyalashgan subyektlar modelining ustunliklari va cheklovlari o'zaro muvozanatda ko'rib chiqilishi zarur. Bir tomondan, ushbu yondashuv resurslardan samarali foydalanish, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, hududlararo tafovutlarni kamaytirish hamda strategik hamkorlikni chuqurlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, subyektlararo ishonchni oshirish orqali uzoq muddatli barqarorlikka erishish mumkin. Biroq, boshqa tomondan, manfaatlar to'qnashuvi, axborot yetishmovchiligi, institutsional nomuvofiqlik hamda malakali kadrlar taqchilligi modelning samarali ishlashiga jiddiy to'siqlar bo'lishi mumkin. Shu sababli, integratsiyalashgan modelni amaliyotda qo'llashda ustunliklardan to'liq foydalanish bilan birga, mavjud cheklovlarni kamaytirishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari

O'zbekistonda "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida integratsiyalashgan yondashuvlar ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Quyidagilar modelni qo'llashning real imkoniyatlari hisoblanadi:

- innovatsion infratuzilma (texnoparklar, ilmiy markazlar);
- tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari;
- mintaqaviy rivojlanish strategiyalari;
- raqamli transformatsiya jarayonlari;
- davlat-xususiy sheriklik loyihalari.

Kelajakdagi rivojlanish istiqbollari

Integratsiyalashgan subyektlar modelini takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalarini jalb qilish, raqamli platformalar orqali subyektlararo hamkorlikni kuchaytirish, yagona monitoring va modellash tizimini yaratish, yangi institutsional yondashuvlarni joriy etish (klasterlar, hublar).

Integratsiyalashgan subyektlar modeli zamonaviy iqtisodiy rivojlanishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu model orqali iqtisodiy subyektlar o'rtasida resurslar, kompetensiyalar va maqsadlar uyg'unligi ta'minlanadi. O'zbekiston sharoitida ham ushbu modelni bosqichma-bosqich joriy etish orqali mintaqaviy va tarmoqlararo barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Shu boisdan, uni ilmiy asosda ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish va doimiy takomillashtirib borish strategik ehtiyoj hisoblanadi.

Integratsiyalashgan subyektlar modeli (davlat–xususiy–investor)

Integratsiyalashgan subyektlar modeli (davlat–xususiy–investor) orqali boshqaruv samaradorligini oshirish zamonaviy boshqaruv tizimida kompleks iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik muammolarni hal etish uchun ko'p subyektki yondashuv zaruratini kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, davlat–xususiy–investor (DXI) integratsiyalashgan modeli asosida boshqaruvni amalga oshirish mintaqaviy va tarmoqlararo rivojlanishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Davlat–xususiy–investor modeli quyidagi asosiy ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarga asoslanadi:

- davlat — normativ-huquqiy bazani yaratuvchi, siyosiy va strategik yo'nalishlarni belgilovchi subyekt;
- xususiy sektor — resurslar, menejment va operatsion faoliyatni amalga oshiruvchi subyekt;
- investor (xorijiy yoki mahalliy) — moliyaviy mablag'lar, texnologiyalar va innovatsiyalarni jalb qiluvchi tomon.

Mazkur modelda boshqaruv uch tomonlama manfaatlar muvozanati asosida shakllantiriladi. Davlat uchun ijtimoiy-iqtisodiy natijalar, xususiy sektor uchun foyda va innovatsiyalar, investorlar uchun esa barqaror daromadlilik muhim hisoblanadi.

Boshqaruv samaradorligi indikatorlari

DXI modeli asosidagi boshqaruv samaradorligi quyidagi indikatorlar orqali baholanadi:

— investitsion loyiha hayotiyiligi (tashabbusdan ekspluatatsiyaga qadar bo'lgan davrda NPV, IRR, ROI ko'rsatkichlari);

- subyektlararo koordinatsiya darajasi (huquqiy va institutsional muvofiqlik, axborot almashinuvi);
- mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar (ish o'rinlari yaratilishi, soliq tushumlari, xizmatlar sifati);
- risklar va ularni taqsimlash mexanizmlarining takomillashuvi.

Modelni amaliyotga tatbiq etishda kuzatilayotgan muammolar



O'zbekiston sharoitida DXI modeli asosida boshqaruvda quyidagi cheklovlar mavjud:

- subyektlar o'rtasida ishonchning yetarli emasligi;
- xususiy sektor va investorlar uchun kafolat va himoya mexanizmlarining zaifligi;
- tahliliy axborot bazalarining sust rivojlanganligi;
- loyihalarni modellashtirish va monitoring qilish metodologiyasining yagona emasligi.

Taklif etilayotgan takomillashtirish yo'nalishlari

Model asosida boshqaruvni takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- subyektlararo axborot platformasini yaratish — raqamli platformalar orqali davlat, xususiy sektor va investorlar o'rtasida ochiq va real vaqt rejimidagi ma'lumotlar almashinuvini tashkil etish;
- boshqaruv uchun KPI tizimini joriy etish — har bir subyekt uchun samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilash (loyiha muddati, xizmat sifati, foyda);
- investorlar uchun kafolat va qo'llab-quvvatlash paketlarini ishlab chiqish
- moliyaviy, soliq va huquqiy kafolatlar tizimi (sug'urta, kafillik, soliq imtiyozlari);
- institutsional muvofiqlikni ta'minlash — davlat organlari o'rtasida DXI loyihalarini muvofiqlashtiruvchi alohida koordinatsion markazlarni tashkil etish.

Integratsiyalashgan subyektlar modeli (ISM)

Integratsiyalashgan subyektlar modeli (ISM) davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy konsepsiya hisoblanadi. Ushbu modelda davlat siyosiy va normativ bazani shakllantiruvchi subyekt, xususiy sektor innovatsiyalar va resurslarni joriy etuvchi agent, investorlar esa loyihalarni moliyalashtiruvchi va baholovchi mustaqil ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi.

ISM asosida budget mablag'larining cheklanganligi sharoitida samarali moliyaviy yechimlar topish, xususiy sektor salohiyatidan keng foydalanish, strategik sohalarga xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilish, mintaqaviy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish hamda innovatsion va infratuzilmaviy loyihalarni tezkor amalga oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Model ishtirokchilari va ularning funksional rollari quyidagicha tavsiflanadi:

- davlat — normativ-huquqiy bazani yaratadi, hamkorlik siyosatini ishlab chiqadi, infratuzilma va ijtimoiy sohalarda tashabbuskor sifatida ishtirok etadi, loyiha monitoringi va samaradorlik nazoratini amalga oshiradi;
- xususiy sektor — qurilish, xizmat ko'rsatish, texnik xizmatlar va texnologiyalarni joriy etish bilan shug'ullanadi, loyihaning texnik jihatlarini uchun mas'ul bo'ladi hamda risklarni o'z zimmasiga oladi;
- investorlar — moliyaviy resurslarni taqdim etadi, loyiha rentabelligini baholaydi va uzoq muddatli hamkorlik asosida barqarorlikni ta'minlaydi (2-jadval).

2-jadval. ISM asosida boshqaruv samaradorligini oshirish mexanizmlari¹

1	Raqamlashtirish va axborot almashinuvi.	Davlat-xususiy-investor modeli boshqaruv samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Maxsus axborot platformalari orqali loyihalarning har bir bosqichi real vaqt rejimida kuzatilib boriladi, bu esa shaffoflikni ta'minlaydi. Misol uchun, investitsiya monitoring platformalari, DTI (Digital Twin Infrastructure) va loyiha menejment tizimlari — zamonaviy boshqaruv vositalaridir.
2	Moliyaviy va institutsional integratsiya.	Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi moliyaviy risklarni taqsimlash orqali boshqaruvda ishonch kuchayadi. Investorlar esa rentabellikni kafolatlovchi davlat imtiyozlari orqali jalb etiladi (garantiyalar, soliq imtiyozlari, erkin iqtisodiy zonalar). Bu yerda "financial blending" va "results-based financing" modellari samarali ishlaydi.
3	Raqobat muhitini rivojlantirish.	Raqobatga asoslangan tanlovlar orqali eng samarali subyektlar tanlab olinadi. Davlat tomonidan qo'yiladigan talablar va shartnomaviy majburiyatlar subyektlararo raqobatni kuchaytiradi va ularni yuqori natijalarga erishishga undaydi.
4	Strategik loyihalarga prioritet berish.	Mintaqaviy rivojlanishda ustuvor yo'nalishlar (suv, energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqalar) bo'yicha ISM asosida strategik rejalashtirish amalga oshiriladi. Har bir loyiha ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirga ega bo'lishi hisobga olinadi.

1 Muallif ishlanmasi.



5	Monitoring va modellashtirish tizimining takomillashuvi.	ISM modelida samaradorlikni modellashtirish uchun KPI (asosiy natija indikatorlari), ROI (investitsiya qaytimi), SROI (ijtimoiy investitsiya qaytimi) kabi ko'rsatkichlar asosida tahlil olib boriladi.
	ISMning O'zbekistondagi tatbiq etilishi.	So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari asosida davlat-xususiy sheriklik va investorlar ishtirokidagi integratsiyalashgan model bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Integratsiyalashgan subyektlar modelida (ISM) raqamlashtirish (digitalization) — davlat, xususiy sektor va investorlar o'rtasidagi hamkorlikni avtomatlashtirish, tezkor va aniq axborot almashinuvi orqali boshqaruv samaradorligini oshirish vositasi hisoblanadi. Raqamlashtirish orqali har bir subyekt o'z faoliyati to'g'risida shaffof va real vaqt rejimida axborot taqdim etadi. Bu esa qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi hamda loyihalarni monitoring qilishni yengillashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot mintqa iqtisodiy rivojlanish dinamikasini baholashda integratsiyalashgan subyektlar modeli samarali uslubiy yondashuv ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tahlillar natijasida davlat, xususiy sektor va investorlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlari hududiy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Mintaqaviy rivojlanish jarayonlarida ushbu subyektlarning muvofiqlashtirilgan faoliyati investitsiya faolligini oshirish, bandlikni yaxshilash hamda ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish imkonini yaratadi.

Tadqiqot natijalari integratsiyalashgan subyektlar modeli asosida shakllantirilgan iqtisodiy siyosat mintaqalar o'rtasidagi rivojlanish tafovutlarini qisqartirish, tarkibiy mutanosiblikni mustahkamlash va hududiy raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi. Shuningdek, mazkur model mintqa iqtisodiy rivojlanishining qisqa va uzoq muddatli dinamikasini prognozlashda yuqori amaliy ahamiyatga ega bo'lib, iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish hamda investitsiya oqimlarini samarali boshqarish imkonini beradi.

Umuman olganda, integratsiyalashgan subyektlar modelini joriy etish mintqa iqtisodiyotini kompleks rivojlantirish, hududlararo iqtisodiy mutanosiblikni ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashning muhim instrumenti sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Barro, R., & Sala-i-Martin, X. (2004). Economic Growth. MIT Press.
2. Rodriguez-Pose, A. (2018). The revenge of the places that don't matter. Cambridge Journal of Regions, Economy and Society, 11(1), 189–209.
3. Tursunov, B. (2020). Hududiy iqtisodiy rivojlanishda davlat-xususiy hamkorlik mexanizmlari. Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 4(2), 45–52.
4. Qodirov, F., & Abdullayev, S. (2021). Mintaqaviy rivojlanishda klasterlash va investitsiya jarayonlari. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 6(3), 28–34.
5. OECD. (2019). Regional Development Policy and Multi-level Governance. Paris: OECD Publishing.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>